



## NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 11-oktabr

535-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

**Namangan viloyat hokimining 2024 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘simliklarni himoya qilishda biologik kurash tadbirlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-sentyabrdagi 595-son qarori ijrosi haqida”gi 450-6-0-Q/24 sonli qarori to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘simliklarni himoya qilishda biologik kurash tadbirlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-sentyabrdagi 595-son hamda Namangan viloyat hokimining 2024 yil 30-sentyabrdagi 450-6-0-Q/24-sonli qarorlari ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

### QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyat hokimining 2024 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘simliklarni himoya qilishda biologik kurash tadbirlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 20-sentyabrdagi 595-son qarori ijrosi haqida”gi 450-6-0-Q/24 sonli qarori rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024 yil 20 sentyabrdagi 595-sonli qarori bilan:

Biologik himoya vositalarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan ko‘paytirilgan biologik himoya vositalarini sertifikatlashtirish tartibi to‘g‘risidagi nizom 1-ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi:

Nizom ushbu qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran uch oy o‘tgach amalga kiritilishi belgilanganligi;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi (keyingi o‘rinlarda Agentlik) 2024-yil yakuniga qadar:

“Biosifat” respublika markazi laboratoriyasini zamonaviy asbob-uskunalar va jihozlar bilan ta‘minlanishi hamda biologik himoya vositalarining sifatini joyida aniqlaydigan ekspress-mobil laboratoriya xizmatini yo‘lga qo‘yishi;

Vazirlar Mahkamasi huzuridagi O‘zbekiston texnik jihatdan tartibga solish agentligi bilan birgalikda “Biosifat” respublika markazi laboratoriyasini akkreditatsiyadan o‘tkazishi;

O‘zbekiston Respublikasining “O‘simliklarni himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq respublikada faoliyat yuritayotgan biolaboratoriyalar tomonidan o‘simliklarni himoya qilish sohasidagi texnik reglamentlarda ko‘rsatilgan xavfsizlik talablariga rioya etgan holda fitosanitariya tadbirlarini o‘z vaqtida amalga oshirilishi, biomahsulotlarning sifati va dalaga tarqatish me‘yori bo‘yicha sertifikatlangan biologik himoya vositalarini tarqatilishi yo‘lga qo‘yilishi;

Agentlik O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligi bilan birgalikda 2024-2025-yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi hamda viloyatlar O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmalari muqaddam biolaboratoriya sifatida foydalanib kelingan bino va inshootlarni qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda davlat-xususiy sheriklik shartlarida tadbirkorlik subyektlariga ajratish choralari ko‘rishi;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi Agentlik bilan birgalikda biolaboratoriyalar va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchilar o‘rtasida biomahsulotlarni yetkazib berish to‘g‘risidagi shartnomalarning tuzilishi va biolaboratoriyalarning moliyalashtirilishi hamda biomahsulotlarning dalaga tarqatilishi bo‘yicha ma‘lumotlarni “Raqamli qishloq xo‘jaligi” platformasiga joylashtirib borilishini ta‘minlanishi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

3. Namangan viloyat hokimining mazkur qarori bilan:

Namangan viloyati tumanlarida 2024-2025-yillarda viloyatda biologik himoya vositalarini ko‘paytirishning prognoz ko‘rsatkichlari ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi;

O‘simliklar karantini va himoyasi boshqarmasi (A.Gafarov)ga tumanlar hokimliklari bilan birgalikda 2024-2025-yillarda xorijiy (xalqaro) moliya institutlari, boshqa xorijiy donorlarning texnik ko‘maklari hamda grantlarini jalb etgan holda viloyatda namunali zamonaviy biolaboratoriya tashkil etish choralari ko‘rish vazifasi yuklatilganligi ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

4. Tuman Qishloq xo‘jaligi bo‘limi (A.Xakimov), O‘simliklar karantini va himoyasi bo‘limi (B.Sobitov), tegishli tashkilotlar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 20-sentabrdagi 595-son qarori talablaridan kelib chiqib ish tashkil qilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimining qishloq va suv xo‘jaligi masalalari bo‘yicha o‘rinbosari B.Muydinov zimmasiga yuklansin.

**Tuman hokimi**



**A.Mansurov**